

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ABDURAUUF FITRATNING “EL ADABIYOTI” XUSUSIYATLARI TO‘G‘RISIDAGI QARASHLARI

Ulug‘murod AMONOV,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

BuxDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292181>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning folklor, folklorshunoslik sohasidagi faoliyatiga, aynan “El adabiyoti” – sohaning terminologiyasi, folklorning nazariy tomonlari, xususiyatlariga, tabiatiga boshqa jadid olimlarining fikrlari bilan qiyosiy tahliliy qarashlari; xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotning farqli qirralariga, folklor janrlariga munosabati haqida mulohaza yuritilgan.

Tayanch so‘zlar: el adabiyoti, omma adabiyoti, folklor, folklorshunoslik, qo‘shiq, ashula, barmoq vazni, qofiya, manbashunoslik, matnshunoslik.

Abstract. This article discusses Abdurauf Fitrat's work in the field of folklore and folklore studies, namely "el adabiyoti" – the terminology of the field, the theoretical aspects, characteristics, and nature of folklore, in comparison with the views of other modern scholars; his attitude to different aspects of folk oral and written literature, and to folklore genres.

Key words: el adabiyoti, omma adabiyoti, folklore, folklore studies, song, chant, fingering, rhyme, source studies, text studies.

Аннотация. В данной статье рассматриваются работы Абдурауфа Фитрата в области фольклора, фольклористики, а именно «эл адабиёти» - терминология области, теоретические аспекты, особенности, природа фольклора, сравнительные аналитические взгляды с мнениями других современных ученых; обсуждалось отношение к различным аспектам фольклора и письменной литературы, фольклорным жанрам.

Ключевые слова: эл адабиёти, омма адабиёти, популярная литература, фольклор, фольклористика, песня, вес пальца, рифма, источниковедение, текстоведение.

Abdurauf Fitrat – XX asr arafasi va boshlaridagi o‘zbek adabiyotining fenomenal namoyandasi, buyuk qomusiy mutafakkir. Serqirra ijodkor merosini o‘rganish sohasida qator ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishiga yo‘l ochdi. Shunday bo‘lsa-da, hanuzgacha uning folklor tabiatiga oid ilmiy qarashlari, asarlaridagi folklorizmlar, xalq og‘zaki ijodi namunalarini nashr etib, ommaga targ‘ib etish yo‘lidagi samarali faoliyati o‘rganilmay kelayotir. Holbuki, Fitrat, “el adabiyoti”ga katta e‘tibor qaratib, “Adabiyot qoidalari” va boshqa qator ilmiy asarlarida uning tabiati, janriy tizimi va tarkibi to‘g‘risida qimmatli nazariy qarashlarni ilgari surgan. Uning bu boradagi qarashlari o‘zbek folklorshunosligi faniga tamal toshi qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ayniqsa, olimning og‘zaki va yozma ijod farqi, folklorga xos spesifik belgilar, xalq qo‘shiqlarining janriy tabiati va folklorning boshqa qator janrlariga munosabati hozirgacha o‘z ilmiy qimmatini saqlab kelayotganiga qaramay,

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

hamon ilmiy-estetik jihatdan umumlashtirilmay, asosli bahosini olmay kelayotgani folklorshunosligimizdagi bir kemtiklikdir. Shuningdek, Fitratning folklorga daxldor bilimi u yaratgan badiiy asarlar misolida yanada ravshanlashadi. Ijodkorning she’rlarida, nasriy, dramatik, publitsistik asarlarida uchraydigan folklorizmlar o‘ziga xos betakrorligi bilan ajralib turadi va ularni o‘rganish so‘z san’atkorining badiiy mahorati darajasini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkonini beradi.

Umuman aytganda, Abdurauf Fitratning folklorshunoslik sohasidagi xizmatlarini, asarlaridagi folklorizmlarning poetik mohiyatini va estetik vazifalarini yaxlit holda maxsus o‘rganish o‘zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, Fitratning o‘zbek folklori bilimdoni, targ‘ibotchisi va tadqiqotchisi sifatidagi serqirra faoliyatini, uning badiiy ijodidagi folklorizmlarni alohida o‘rganish zarur. Chunki bu masala, avvalo, folklordan foydalanish badiiy adabiyot taraqqiyotining XX asr boshlari davrida qanday kechganligini, uning bu tadrijiy bosqichiga xos xususiyatlarni, qolaversa, Fitratning she’rda, nasrda va dramaturgiyada folklordan foydalanishdagi uslub va mahoratini maxsus bilib olishga yordam berishi jihatidan juda muhimdir.

Fitratni ko‘rgan, bilgan, yaqindan tanigan folklorshunos H.T.Zarifov u haqda shunday degan: “Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, O‘zbekistondagi hozirgi qo‘lyozmalar fondlari, folklor arxivlarining yuzaga kelishida, qadimiy osori atiqalarning to‘planishida o‘zbek olimlari va ziyolilarining xizmatlari beqiyosdir. Mana Fitrat domlani oling. Bu mo‘tabar shaxsning mazkur sohadagi xizmatlari minglarga tatiydi. Ig‘vo va tuhmatlar bilan g‘ayriqonuniy ravishda qatl etilgan Fitrat domla bu sohada shunchalar ko‘p ish qildiki, uning faoliyatiga barcha ilmiy va adabiy ijodini soqit qilingan holda baho berilganda ham, madaniy merosimizni to‘plashdagi xizmatlari bilan tariximizdan mustahkam o‘rin olgan bo‘lardi. ...Ammo uning xizmatlari hali ham munosib baholangan emas”[Mirzayev T. 7:52].

O‘zbek adabiyotshunosligida ayrim ijodkorlarning yozma adabiyotda folklorga munosabatini monografik tarzda o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar esa XX asrning 60-70-yillarida yaratila boshlandi. Ularda, asosan, folklordan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, u yoki bu ijodkorning folklordan ta’sirlanishi va undan ijodiy foydalanishdagi mahorati, folklorning adabiy jarayonga ta’siri kabi muammolarga e’tibor qaratildi. [Mirzayev S. 8.] Demak, shunday tadqiqotlar qatorida Fitrat va unga zamondosh ijodkorlarning folklordan foydalanish mahoratini ham maxsus o‘rganish zarurdir.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Til, adabiyot, falsafa, tarix singari qator ijtimoiy fanlar qatori folklorshunoslik fanining oyoqqa turishida Fitratning xizmatlari katta bo‘ldi. Zero, o‘zbek folklorshunosligining shakllanishida va uning metodologik asoslarini belgilab olishda Fitratning o‘z o‘rni borligidan aslo ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Shu ma’noda aytish mumkinki, Fitrat XX asr o‘zbek folklorshunosligining asoschilaridan biridir. Buni uning folklorga oid nazariy qarashlari to‘la tasdiqlay oladi. Chunki Fitratning bu borada bildirib o‘tgan ilmiy g‘oyalari folklorshunosligimizning keyingi bosqichlarida yanada rivojlantirildi hamda uning nazariy asoslarini, o‘ziga xos poetik qonuniyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi. Hatto Turkiyada yashayotgan o‘zbek olimi Temur Xo‘ja o‘g‘li “Turkiston olimi Abdurauf Fitratning turkologiya sohasidagi unutilgan asarlari” maqolasida “Fitratni tom ma’noda ta’rif etmak uchun... bu sifatlardan bir qanchasini keltirishni ma’qul bilamiz: islohotchi, siyosatchi va davlat arbobi, noshir, muharrir, publitsist, hikoyanavis, shoir, dramaturg, adabiyot tarixchisi, adabiyot tanqidchisi, tilshunos, musiqa tarixchisi, f o l k l o r s h u n o s olimdir” deb yozadi. Demak, Fitratning folklorshunos sifatidagi faoliyatidan chet ellarda ham xabardordirlar.

Fitratda folklorga havas bolaligidanoq onasining el ichida mashhur qo‘shiqlarni kuylab berishi ta’sirida uyg‘ondi va bu havas unga umr bo‘yi hamrohlik qildi. Bora-bora Fitrat o‘z davrida xalq ijodiyotining chuqur bilimdonlaridan biri sifatida uning hormas-tolmas targ‘ibotchisiga aylandi. U tuzgan “O‘zbek adabiyoti namunalari” (1928) xrestomatiyasida birinchi marta el adabiyotidan namunalarni keltirildi.

Abdurauf Fitrat realistik o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligining asoschisigina emas, balki keng qamrovli nazariyotchi olim sifatida adabiyot, musiqa va folklorning qator nazariy muammolarini hal qilishni maqsad qilib, juda katta natijalarga erishgan edi. Uning bu to‘g‘ridagi nazariy qarashlari qator ilmiy risolalari – “Adabiyot qoidalari”, “Aruz haqida” hamda musiqa o‘g‘id “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan. Bu kitoblarda mumtoz va yangi o‘zbek adabiyotining qator manbalari qatori xalq og‘zaki ijodining turli materiallariga ham murojaat qilinib, ularga munosabat bildirilgan, chunki xalq og‘zaki ijodi har bir xalq milliy madaniyatining muhim bo‘lagidir. Masalaga shu nuqtai nazardan qaragan Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari” qo‘llanmasida xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq “El adabiyoti” nomli shaklan jajjigina, lekin o‘z davrida nazariy jihatdan salmoqli tadqiqotini e’lon qildi. [Fitrat A. 2:69-85.]

Turkiy xalqlarning og‘zaki ijodi Abdurauf Fitratga qadar bir necha asrlar oldin Mahmud Qoshg‘ariy, Abulqosim Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Abulg‘ozi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Bahodirxon, Muhammad Sharif Gulxaniy kabi adiblarning e'tiborini o'ziga jalb qilgan. Ular xalq og'zaki ijodining qo'shiq, marsiya va maqol janriga oid namunalarini to'plab, o'z asarlariga kiritishgan. Shu bilan birga ular haqida ba'zi nazariy fikrlarni ham bildirib o'tishgan. Bu folklorshunosligimizning nihoyatda qadim sarchashmaga ega ekanligining dalilidir.

XX asr boshigacha jahonning ko'pgina mamlakatlarida folklor fan sifatida shakllangan, xalq ijodiyoti namunalarini to'plash, ularni o'rganish allaqachon boshlangan edi. Bizda esa u fan sifatida shakllanish narida tursin, maxsus to'plash ishlari ham hali to'liq yo'lga qo'yilmagan edi. Mana shu kemptiklik hassos Abdurauf Fitrat nazaridan chetda qolmadi. Uni xalqning og'zaki ijodi bor maftunkorligi bilan o'ziga jalb etdi. Shuning uchun XX asr boshida qomusiy olim tomonidan tashkil etilgan “Chig'atoy gurungi” to'garagining asosiy vazifalaridan biri folklor materiallarini to'plashdan iborat bo'ldi. Aniqrog'i, XX asr boshlarida Turkistonda bir necha ilmiy-adabiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatdi. Ularning say'-harakati bilan o'zbek adabiyotshunosligining tadqiqot ko'lami kengaydi. Ayniqsa, o'ninchi yillarning so'nggida tuzilgan “Chig'atoy gurungi” tashkiloti o'z davrining yirik ilmiy-adabiy tashkilotlaridan biriga aylandi. Fitrat uning rahbari, Elbek esa faol a'zolaridan edi. Bu tashkilot ko'proq til va imlo masalalari bilan shug'ullangani sababli xalq tilida yaratilgan folklor asarlarini to'plab nashr etish, ularni tizimli o'rganish ishlariga ham e'tibor qaratdi. Qrim-tatar turkshunosi Bakrbek Cho'ponzoda (1893-1937) gurungchilar tutgan bu yo'lni “Chig'atoy gurungi” chig'atoy tilini qayta tiklash shiori bilan dunyoga kelib, mavjud o'zbek shevalarini o'rganishdi... Shuningdek, yuqorida aytilgan faoliyat bilan birga “Chig'atoy gurungi” vakillari yosh yozuvchi va shoirlarni tarbiyalash, folklor materiallarini yig'ish, ommabop teatrini tashkil etishdek ishlarda ham faollik ko'rsatdilar” deya ta'riflaydi.

XX asrning 20-yillarida Abdurauf Fitrat jonkuyarligi va da'vati bilan xalq og'zaki ijodi namunalarini yozib olish boshlandi. Natijada o'nlab xalq dostonlari, yuzlab xalq ertaklari, qo'shiqlar, laparlar, topishmoqlar va maqollar qog'ozga tushirilib, ularning yo'qolib ketish xavfi bartaraf etildi. Shu asosda o'zbek folklorshunosligi asta-sekin fan sifatida shakllana bordi. Bu o'rinda Abdurauf Fitratning folklorshunoslik fani shakllanishiga munosib hissa qo'shgani, uning poydevoriga tamal toshini qo'yganlardan biri bo'lgani yaqqol anglashiladi.

Yana shuni aytish mumkinki, **Fitrat o'zbek “el adabiyoti” tabiati haqida birinchilardan bo'lib fikr yuritgan nazariyotchi olimlardandir.** Fitratning ilk nazariyotchi folklorshunoslardan bo'lganini bevosita u yaratgan tadqiqotlar ko'lami

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

va ilmiy qimmatini misolida dalillash mumkin. Olim “Turklarning musulmonliqdan burun ham she’rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi” demakdan o‘z boshimizni qutqara olmaymiz. O‘zbek, totor, qirg‘iz, turkman orasida turk odi kabi unutilmas bir yo‘sunda bu kungacha yashab kelgan cho‘bchaklar, matallar, ertaklar, o‘lan va laparlarning har birini eshitib yuramiz.... Ulu ora og‘izdan-og‘izga aylanib yurg‘an cho‘bchaklardan yaxshig‘ina onglashilurkum, turk eski adabiyot madrasasida sevgi va oshiqdan boshqa falsafa, hikmat va axloqdan ham ko‘b narsalar bor ekan”, – deya folklorning jamiyat va xalq hayotidagi o‘rni hamda ahamiyatiga katta e‘tibor bilan qaraydi.[Fitrat A. 3:5.]

Muhimi, Fitrat folklorning spesifik xususiyatlarini ochib berishga urinar ekan, u haqda: “o‘zining yolg‘uzg‘ina samimiyligi bilan o‘zini saqlashg‘a tirishqon bir adabiyotimiz bor. Bular xalq orasidan chiqqan, xalqqa, ko‘pchilikka qaratib yozg‘an, so‘ylag‘an shoirlarimiz, baxshilarimizning asarlaridir”, – deydi.[Fitrat A. 3:20.]

E‘tibor qilinsa, shu o‘rinda Fitrat “yozg‘an” fe‘lini noo‘rin ishlatayotir. Chunki folklor asarlariga og‘zaki yaratilgan asarlar sifatida qarash lozim. Unga nisbatan “yozg‘an” fe‘lini ishlatish to‘g‘ri kelmaydi. Holbuki, olimning o‘zi ham xalq asarlarining uslubida “boshqaliq” bordir degan ta‘kidni aytib o‘tishni unutmaydi.

Ma‘lumki, “folklor” atamasi keng ma‘noda xalqning butun madaniyati: urf-odat va marosimlari, amaliy san‘at durdonalariga nisbatan qo‘llansa, tor ma‘noda faqat badiiy so‘zga oid asarlarga nisbatan ishlatiladi.[Muxpaev T. 6:3.] Rus olimlari fan sifatida folklorshunoslik xalqning badiiy ijodinigina emas, balki xalq musiqa ijodi va xalq tomosha san‘ati (xalq teatri, xalq raqsi singarilar)ni ham o‘rganishi lozim deb hisoblaydilar. Abdurauf Fitrat esa hodisani “el adabiyoti” atamasi bilan nomlaydi hamda uning estetik mohiyatini ochishga urinib, qator xususiyatlarini o‘sha zamondayoq ishonchli va aniq ifodalaydi. To‘g‘ri, XX asr boshlarida xalq og‘zaki badiiy ijodini ifodalovchi yagona termin bo‘lmagan va hodisa “xalq adabiyoti”, “omma adabiyoti”, “xalq ijodi”, “el ijodi” singari xilma-xil atamalar bilan nomlanib kelinayotganida, Abdurauf Fitrat tomonidan uning “el adabiyoti” termini bilan ifodalangani qaydarajadadir olimning hodisaga o‘ziga xos yondashganini ko‘rsatsada, bu istilohda ma‘lum kentiklik ham bor edi.[Safarov O. 9:70.] Zero, “el adabiyoti” termini keng ma‘noda bo‘lib, umuman, adabiyotni, shu jumladan, allaqachon xalq ma‘naviy mulkiga aylanib ulgurgan yozma adabiyot durdonalarini ham anglatar, biroq folklorning og‘zakiligini ifoda eta olmasligi tufayli xalq og‘zaki poetik ijodiga teng ekvivalent bo‘la olmas edi. Olimning yozma adabiyot va el adabiyoti

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

chegarasini, ya’ni ob’ektini aniq belgilab bergani xalq og‘zaki poetik ijodining hozirda ifodalaydigan tushuncha doirasiga hamohang kelishi bilan ahamiyatlidir.

O‘tgan asrning 20-yillarida yozilgan nazariy ishlarda folklarga alohida katta ahamiyat berilgan. Fitratdan tashqari Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa’diy, G‘ozi Olim Yunusov, Otajon Hoshim kabi olimlar ham xalq og‘zaki ijodi tabiati xususida o‘z fikr-mulohazalarini, ilmiy qarashlarini bayon etishganiga guvoh bo‘lish mumkin. Bunda V.Mahmudning «el adabiyoti», A.Sa’diyning «omma adabiyoti» atamalarini qo‘llagani kuzatiladi.

Abdurauf Fitrat “El adabiyoti” kitobida V.Mahmud va A.Sa’diyning folklarga nisbatan qo‘llagan atamalariga alohida munosabat bildirib o‘tgan. U Vadud Mahmudning yozma adabiyot bilan el (xalq og‘zaki) adabiyotining o‘zaro farqi, o‘xshash va zid qirralari, o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi qarashlarini ko‘p nuqtalarda qo‘llab-quvvatlaydi: “*Yozma adabiyot, el adabiyoti* deb adabiyotni ikiga ajratadirlar. Bu ajratish to‘g‘risida yosh adabiyotchilarimizdan V.Mahmudning shu ahamiyatli fikrini tinglaymiz: «... lekin yozma, el adabiyotini ayirmoq va bularni jomi’, moni’ ta’rif qilmoq qiyindir, hatto mumkin emasdir. Yozma adabiyotning bir xususiyati yozmaligi, ikinchisi, asar egasining ma’lum bo‘lishidir, el adabiyotining xususiyatida shu sifatlarning bo‘lmasligi va og‘izdan-og‘izga ko‘chib yurishidir”.[Fitrat A.2:69.]

Bu fikrlardan so‘ng Fitrat bevosita tahlilga kirishib, folklor asarlariga xos jamoaviylik, anonimlik xususiyati qanday yuz berishi-yu uning qay tarzda “el adabiyoti” sifatida umumiylik kasb etishini V.Mahmud fikrlariga tayanib quyidagicha tushuntiradi: “Birinchi: bir vaqtlar yozma o‘laroq tasbit etilgan (maydong‘a chiqqon) bir adabiy asar yo‘qoldi deylik va so‘ngra uning parchalari og‘izdan-og‘izga ko‘chub yurdi va asar egasining oti ham unutildi deylik. Ikinci: og‘izdan-og‘izga ko‘chib, asrlarcha yurg‘an doston, maqollar yozilib bir majmua holiga keltirildi deylik (qandayki, bu kun har yerda qilinadir). Bu ikovini qanday qilib ajratish kerak va qaysini qaysisiga kirgizish kerak?».[Fitrat A.2:69.]

Shundan kelib chiqib, Fitrat V.Mahmudning gapini “juda to‘g‘ri” deb ma’qullaganicha, shunday yozadi: “Bu iki (“ikki” demoqchi – U.A.) turli adabiyot orasidagi farqi yozmoq, yozilmag‘anliqda yoki egasining belgili-belgisiz bo‘lg‘anida ko‘rmak yonglishdir”.

A.Fitrat og‘zaki va yozma adabiyotlarning o‘zaro farqli xususiyatlariga to‘xtalarkan, «buning ayirmasi yozma bo‘lmasligida, yo egasining ma’lum emasligini»ni ta’kidlab, «har bir doston, maqol, topishmoq, ashula, asosan, bir kishi

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

tomonidan chiqoriladir-da, so'ngra umumiy lashib ketadir», – deya folklor asari individual ijoddan boshlanajagiga, so'ngra «umumiy lashib» jamoa ijodi mahsuliga aylanishiga ishora qiladi. Shundan kelib chiqib, u: “V.Mahmud el adabiyotining egasi ma'lum bir kishi emas. Uning egasi xalqdir degan fikrni ham mana shunday churutadir. Hech bir doston, maqol, topishmoq, ashula yo'qki, yigirma kishi o'ylashib to'qug'an yoki «basta»lagan (bog'log'on) bo'lsun”, – deydi.

Xullas, V. Mahmud el adabiyotining yozma adabiyotdan farqini uning yozma bo'lmasligi, muallifning noma'lumliligi va og'izdan-og'izga ko'chib yurishi misolida dalillashga uringan bo'lsa, A.Fitrat esa folklorning asl mohiyatini uning xalqona ruhga sug'orilganligida ko'radi: «...el adabiyotini «adabiyot»dan (tor san'atkorona adabiyotdan) ayirg'on narsa, uning yozilmaganligi emas, uning ruhidir. U soddadir, tabiiydir, ko'pchilikning zavqiga yararlikdir!.. Shunday bo'lsa ham, bizning san'atkor adabiyotimizga qarshi o'zining samimiyligi, soddaligi bilan o'z borlig'ini saqlab kelgan bir adabiyotning borlig'i-da ma'lumdir».[Fitrat A.1: 82-83.]

A.Sa'diy folkloriga nisbatan “omma adabiyoti” atamasini qo'llaganki, Fitrat bunga nisbatan ham o'z munosabatini bildirar ekan: “A.Sa'diyning «El adabiyoti»ni omma adabiyoti deyishiga haq bergum keladir”, – deydi va buning sababini V.Mahmudning quyidagi mulohazalariga topinib izohlashga uringanini alohida ta'kilab o'tadi: “Turkistonning so'ng shoirlaridan Muqimiy, Furqat, Haziniy parchalaridan shundaylari borki, agar allaqaysi tokchalarda churub, qorayib ketgan bayozlardan ko'rub egalarini bilgan bo'lmasoq, ularni el adabiyotidan ajrata olmas edik... Shaharlarda, saroy, madrasa tegrallarida yig'ilib, madaniyatcha ilgari bosqon, iqtisobcha ko'tarilg'an, tuyg'ucha-zavqcha ingichkalangan bir «ko'ma» (zumra)dan keyinga qarasangiz, madaniyat, e'tiqod, tuyg'u, zavq ham tushunchada tubanda qolg'an buyuk bir ko'pchilikni ko'rishingiz aniqdir. Mana shu ketda qolg'an ko'pchilikning tushunishiga, zavqiga, tuyg'usiga, ruhiga qaratib yoritilg'an keng bir adabiy maydon, judayam ko'p adabiy asarlar bor. Mana shu asarlarga biz *el adabiyoti* deymiz... Bunday ifoda, uslub, o'xshatishlar, sufatlashlar, majozlar, istioralar, qaynashlar – hammasi elniki, el tushunishiga mos keltirilgandir. Haligi san'atkor «ko'ma» (zumra) shoirlarining hech-da yoqtirmag'anlari ta'birlar, o'xshatishlar el adabiyotining eng chiroylik qismidir.[Fitrat A.2:70]

Fitrat xuddi V.Mahmud kabi “el adabiyotidan sanalg'an asarlarning egalari (ko'pchilikning «ko'ma» (zumra) shoirlari) tomonidan yozilg'an asarlar orasida ko'pchilikning tuyg'u, zavqiga yoqib, el adabiyoti qatorig'a kirganlar ham bordir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, “Vadud Mahmudning aytg'ani Furqat, Muqimiy, Haziniy

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

«parcha»lari shu qatordandir. El adabiyotidan sanalgʻan asarlar koʻbchilikning tuygʻusiga, zavqiga shunday mos keladirkim, u bularning egalariga ahamiyat bermaydir-da, asarni oʻziniki qilib oladir”.

V.Mahmudning shu kabi taʻkidlariga tayangan Fitrat bevosita xalq ijodidan olingan namunalarga murojaat qilib, ular misolida folklor xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi. Buning uchun u dastlab quyidagi laparni misol qilib olgan:

*Lapar aytsang toʻyda aytgil,
suluv qizlar qocharo,
Ochilmagʻan gul gʻunchani
bulbul sayrab ocharo.
Koʻzam olib su(v)ga chiqsam oh uradir bir yigit,
Koʻzam qoʻyub quloq solsam, yordan ayrilgʻan yigit,
Yordan aypilgʻan yigitning yori men boʻlsammukin?
Qoʻligʻa qirgʻiy berib, koʻksida jon bersammukin?
(El lapari).*

Shundan soʻng olim: “Mana bu sheʼrlarda: *Ochilmagʻan gul gʻunchaning bulbul sayrashi bilan ochilishi* kabi chiroylik kinoya, *koʻza olib su(v)ga chiqmoq, qoʻlga qirgʻiy berib, koʻkragida jon bermak ...* «koʻma» (zumra) shoirlarimizgʻa yoqaturgʻan taʻbirlar emasdir”, – deydi.

Fitrat “el adabiyotini “adabiyot”dan (tor sanʻatkorona adabiyotdan) ayirmoq uchun bu adabiy hodisani yozish bilan emas, sinf masalasi bilan izoh etmak tuzukroqdir, deb hisoblaydi.

Fitratning tadqiqotchilik mahoratini maxsus oʻrgangan U.Joʻraqulovning fikricha, mumtoz adabiyotni adabiyotshunoslik, tilshunoslik, folklor, tarix kabi yordamchi fanlar tajribasiga asoslangan holda tadqiq etishni birinchilardan boʻlib Fitrat boshlab bergan. [Joʻraqulov U. 5:7.]

A.Saʻdiy ogʻzaki adabiyotning yozma adabiyotdan farqini quyidagilarda koʻradi: 1) chaqirgʻuchining maʼlum boʻlmasligi; 2) butun ommaning oʻrtoq adabiy kuchi qotishib ishlangan boʻlishlari; 3) butunlay ommachilik ruhi va omma zavqi bilan sugʻorilgʻonligʻi; 4) ijodda soddalik va syujetning ibtidoiyligi; 5) tizma turining hijo vaznida boʻlishi.[Saʻdiy A.13:62]

U.Joʻraqulovning taʻkidlashicha, A.Saʻdiyning folklorshunoslikka daxldor qarashlarida [Joʻraqulov U. 5:7] koʻproq rus adabiyotshunosligining, ayniqsa, A.A.Potebnya taʻsiri sezilsa, A.Fitrat, V.Mahmudlarning qarashlarida jahon adabiyotshunosligi nazariy tajribalari jadid estetikasi prizmasi ostida talqin etiladi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Xullas, A.Fitrat, V.Mahmud, A.Sa'diylarning o'z davrida “el adabiyoti” haqida bildirgan fikr-mulohazalari o'zaro yaqin bo'lib, biri ikkinchisini yanada to'ldiradi. Aytish mumkinki, ular folklorga xos yetakchi xususiyatlarni o'zida ifodalay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.82-83.
2. Фитрат А. Эл адабиёти // Адабиёт қоидалари / ТА. 4-жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.71.
3. Фитрат А. Шеър ва шоирлик. Адабий мубоҳаса. ТА. IY жилд. Дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. – Тошкент: Маънавият, 2006. – Б.27.
4. Ашулалар тўплами. III нашри. Тўпловчи ва тартиб берувчилар: Ғуллом Зафарий ва Элбек. – Тошкент, 1935.
5. Жўракулов У. Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати: Филол. фанлари .номзоди. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б.7.
6. Мирзаев Т. ва бошқалар. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – Б.3
7. Мирзаев Т. Абдурауф Фитрат. // Ҳоди Зариф суҳбатлари. Устозлар, ҳамкорлар ва сафдошлар. – Тошкент: “SHAMS - ASA”. – Б.52.
8. Мирзаев С., Файзиев А. Абдулла Қаҳҳор прозасида халқ оғзаки ижоди // Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Тўплам. – Тошкент, 1967;
9. O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Darslik. – Toshkent: Aloqachi, 2010. – B. 70.
10. Ўзбек фольклори. Педагогик институтлар учун хрестоматия / Тузувчи Ҳоди Зариф. 1-китоб. – Тошкент: Ўқувпеднашр, 1939. – Б.285-353.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилд. I жилд.. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энсклопедияси, 2006. – Б.122.
12. Amonov, U. (2024). SADRIDDIN AINI'S CRITICAL VIEWS (BASED ON THE TAZKIRAH “SAMPLE TAJIK LITERATURE”). *European International Journal of Pedagogics*, 4(11), 200-207.
13. Саъдий А. Адабиёт дарслари, 62-бет.
14. Амонов, У. С. (2022). Jadidchilik harakati va «buxoroyi sharif» ro'znomasi: Amonov Ulug'murod Sultonovich, BuxDUPI dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, 5, 62-67.
15. Ulugmurod, A. S. Abdurauf fitrat is one of the earliest researchers of Uzbek folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 6. First page:(669) Last page:(673). *Online ISSN*, 2249-7137.